O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi

Tibbiy ta'limni rivojlantirish markazi

Toshkent farmatsevtika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi

S. X. Qodirova, R. M. Nazarova, F.M.Axmedova, N. S. Salimsaqova

# “MILLIY ISTIQLOL G’OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR”

(ma'ruzalar matni)

Toshkent 2008

**O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi**
**Tibbiy ta'limni rivojlantirish  markazi**
**Toshkent farmatsevtika instituti**

“Tasdiqlayman”
O’zRSSv fan va o’quv yurti
bosh boshqarmasi boshlig’i
professor Sh.E.Ataxanov
__________________________
______    _________ 2008y

# “MILLIY ISTIQLOL G’OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

**“Farmatsiya” “kasbiy ta'lim”, “klinik farmatsiya” yo’nalishlarining V kurs talabalari va “sanoat farmatsiyasi”, “biotexnologiya”, “kosmetsevtika” yo’nalishlarining IV kurs talabalari uchun**

**Toshkent 2008 yil**

**Tuzuvchilar:** dotsentlar S.X.Qodirova, R.M.Nazarova,

**katta o’qituvchilar** F.M.Axmedova, N.Salimsoqova

**Taqrizchilar**: Toshkent Moliya instituti, “Falsafa” kafedrasi mudiri, professor N.M.Mamatov
ToshFarmi “Ijtimoiy fanlar ” kafedrasi mudiri, professor X.M.Mamedov

Markaziy uslubiy kengash majlisida ko`rib chiqildi № 3-сонли 14.10.08й
________________ f.f.n. professor, N.Q.Olimov

Toshkent farmatsevtika instituti ilmiy kengashida ________ ko’rib chiqildi, chop etilishga tavsiya etildi.

# 1 mavzu: «Milliy istiqlol g'oyasi» fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

**Reja:**

1. Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishining ob'ektiv zarurati.
2. Milliy istiqlol g'oyasi fanning predmeti, ob'ekti, maqsadi va asosiy vazifalari
3. Fanning asosiy tushunchalari va printsiplari

**Adabiyotlar**


1.I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. T."Ma'naviyat"2008.

2.Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. 11 jild. – T.O'zbekiston. 2003.

3.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'uldirmiz. 9 jild. – T., O'zbekiston, 2001.

4.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Mas'ul muharrir E.Nazarov, Toshkent – 2001.

5.G'oya va mafkura. Mas'ul muharrir E.Nazarov. Toshkent – 2001.

6.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas'ul muharrir E.Nazarov. Toshkent – 2001 y.

7.E.Nazarov. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. Toshkent 2001.


**Tayanch tushunchalar**

G'oya, mafkura, fikr, tafakkur, faraz va nazariya, predmet, ob'ekt, tamoyillar, ijtimoiy moxiyat.

## Ma'ruza maqsadi.

Xar bir kishi o'zi yashayotgan jamiyat yoki davlatning tarixiy maqsadini ifoda etadigan bosh g'oyalarni bilish, aniq tasavvur etishi kerak. Milliy istiqlol g'oyasi ana shunday ezgu maqsad yo'lida xizmat qiladigan milliy-ma'naviy kuch-qudrat manbaidir.

O'zbekiston fuqarolarini mamlakat oldida turgan tarixiy maqsadlar yo'lida jipslashtiradi.

Shunday ekan, mazkur ma'ruzada milliy istiqlol g'oyasi fan sifatida, uning predmeti, ob'ekti, tamoyillari, maqsadi, ahamiyatini o'rganishni o'zimizga maqsad qilib qo'yamiz.

1 savol.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy-ma'naviy yangilanishda milliy istiqlol g'oyasiga tayanishga aloqida e'tibor berdi. Sobiq sho'rolar davrida amal qilinib kelingan, xalqimizning milliy-ma'naviy ruhiyatiga tamomila zid bo'lgan «kommunistik g'oya» dan voz kechildi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va tajribasi biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlamoqda. Ana shu ezgu g'oyalar – mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etishdan iboratdir.

Fikrimizni yanada oydinlashtirish maqsadida ikki tuzum ikki mafkura o'rtasidagi farqni ko'rsatishga xarakat qilamiz.

| **Totalitar tuzum belgilari** | **Demokratik jamiyat qurishning umume'tirof etilgan tamoyillari** |
|---|---|
| 1. Yakka siyosiy partiya xukmronligi. | 1. Fuqarolar erkinligi va teng xuquqligi qonunlarda mustahkamlanadi va amalda to'liq ximoyalanadi. |
| 2. Davlat boshqaruvi diktator, markaz tomonidan amalga oshiriladi. | 2. Xalq xokimiyatchiligining vosita va shakllari qonunan o'rnatildi |

va so'zdagina emas amalda, xayotda to'liq amal qiladi.

3. Ijtimoiy munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy jismoniy zo'ravonlik asosida tartibga solinadi.

4.Oshkoralik, erkin fikr qat'iyan man qilinadi.

5. OAV, ta'lim tizimi, ijodkor uyushmalari orqali taqiqlash yakka mafkuraga asoslanadi

6.Rasmiy mafkuraga mos kelmaydigan nashriyot man qilinadi (tsenzura).

7. Siyosiy qatag'onliklar. NKVD, GPU tyurma va boshqalar, axoli qo'rquv ostiga olinadi.

3. Inson, uning xuquq va erkinliklari xamda manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligi e'tirof etildi, amalda ro'yobga chiqarildi.

4. Insonning o'z xoxish irodasini, erkin bildirishi va uni qonunan amalga oshirish erkinligi kafolatlangan bo'ladi.

5. Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligi. Xokimiyatning bo'linishi. Ko'pchilik xokimiyati, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, ozchilikning fikrini xurmat qilish.

6.Ko'ppartiyaviylik, OAV ning erkinligi. Demokratiya xamma sohada xoxlagancha erkinlik emas, konunga asoslangan erikinlik ekanligi.

7.Davlat boshlig'i va vakolatli organlarning xalq tomonidan saylab qo'yilishi, ularning saylovchilar oldida xisobot berishi.

Shunday ekan, O’zbekiston xalqi o’z milliy g’oyasi negizlariga tayangan xolda rivojlanish yo’lini tanladi. Uning o’ziga xos sabablari mavjud. Ular asosan quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mustaqillik tufayli xalqimiz o’ziga xos va mos rivojlanish yo’lini tanlash xuquqiga ega bo’ldi.

Ikkinchidan, «mustabid totalitar tuzum» davrida kommunistik mafkura targ’ibotchilari o’zbek xalqining turmush tarzi, dunyoqarashi, tarixi, urf-odatlari, an'analari va milliy xususiyatlarini xisobga olmasdan bizga begona va yot bo’lgan qadriyatlarni, maqsadlarni singdirishga urinib kelgan. Buning asoratlaridan xalos bo’lishga qaratilgan ma'naviy extiyoj paydo bo’ldi.

Uchinchidan, ma'lumki, xar qanday davlat yoki jamiyat maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanishi uchun ma'naviy asoslarini belgilab oladi. Tarixiy maqsad xalqning milliy-ma'naviy g’oyalarida o’z ifodasini topadi. Shu ma'noda o’zining mustaqil yo’lini tanlab olgan O’zbekistonda milliy g’oyani o’rganishga zarurat bo’lgan deb qaralish lozim.

To’rtinchidan, jamiyat qurilishi tarixida xar xil g’oyalar xukmronligi bo’lgan. g’oyaviy maqsadlar tufayli jamiyat xayotida turli xil voqealar ro’y bergani tabiyy, ular turli xil oqibatlarni keltirib chiqargan. Demak, g’oya bilan g’oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning farqini bilish va anglash uchun ham milliy istiqlol g’oyasini o’rganish zarur.

Beshinchidan, g’oyalar jamiyatdagi turli insonlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, xalqlar, millatlar maqsadi, orzu intilishlari, xayotni idrok etish, ko’nikma va malakalari, xulq-atvor ko’rinishlari, qadriyatlari manfaati bilan uzviy bog’liq bo’ladi. U yoki bu g’oya qaysi manfaatni qanday tamoyillarga asoslangan xolda ifoda etishga va qanday g’oya ekanligiga baho beriladi.

Oltinchidan, g’oyalar ta'sir ko’lami bilan ham bir-biridan farqlanadi. Ayrim g’oya tarafdorlari mutloq xaqiqatni e'tirof etishga da'vo qilishi mumkin. Ular o’z maqsadlarini boshqa xalqlarning milliy xususiyatlarini xisobga olmasdan, qanday yo’l bilan bo’lmasin «singdirishga» urinadi. Demak, bu borada har birimizdan ogoxlik talab etiladi.

Ettinchidan, milliy istiqlol g’oyasini o’rganishning zarurligi bugungi dunyoda mafkuraviy kurashning davom etayotganligi bilan xam bog’liq. Insonlar ongi va qalbini egallash unga ta'sir ko’rsatib, o’z maksad va muddaolarini bir tomonlama amalga oshirishga urinishlar to’xtamayotganligidan ham kelib chiqmoqda. Milliy istiqlol g’oyasini fan sifatida o’rganishning sabablarini mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov quyidagicha ta'kidlaydi: «Oldimizga qo’ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo’lish, g’oyaviy bo’shliq paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, begona va yot g’oyalarning hurujidan ximoyalanish bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan xar tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda».[1]

Anna shu xayotiy zarurat «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»ni fan sifatida o’rganishni taqozo etadi.

2 savol.

Xar qanday fanning o’ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari bo’ladi. Biz o’rganishga kirishayotgan fanning xam o’z predmeti, qonun va kategoriyalari, maqsad va vazifalari bor.

«G’oya» va «mafkura» tushunchalari, ularning xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, xozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar, milliy istiqlol g’oyasining mazmun-moxiyati, tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo’lish xususiyatlari, uni xalqimiz qalbi va ongiga singish yo’llari va usullari ushbu fanning predmetini belgilaydi. Uning tushuncha va kategoriyalari bir butun, yaxlit tizim shaklida namoyon bo’ladi.

Milliy istiqlol g’oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini fuqarolarimiz qalbi va ongiga singdirish omillari va vositalari xam ana

---

1.Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'ulmiz» 9-jild. T:. O’zbekiston, 2001, 220 b.

shu tizimning tarkibiy qismi bo’lib, fanning asosiy tushuncha va kategoriyalari qatorida o’rganiladi.

Sobiq ittifoq davrida g’oyalar dunyosi, uning o’ziga xos qonuniyatlari, ularning jamiyat va inson xayotidagi o’rni va ahamiyatini o’rganuvchi aloqida fan yo’q edi. Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin.

Sobiq markscha – lenincha mafkura mutloq xaqiqat sifatida e'tirof etilgan,

G’oyalar to’g’risidagi bilimlarni egallash bu sohaning o’z qonuniyatlari va amal qilish tamoyillari borligini yaqqol ko’rsatib quygan bo’lar edi. Masalan, kommunizm (xayoliy jannat) qurishni tarqib qiladigan sohta ta'limotining asl qiyofasini oshkor qilib qo’yardi,

Sobiq sho’ro davrida bu sohadagi mutahassislarning ongi va dunyoqarashini umuminsoniy tamoyillar, qonun-qoidalar bilan emas, balki totalitar mafkura va mustabid tuzumning maqsadlari yo’lida shakllantirishga xizmat qiladigan ba'zi «fan»lar o’ylab topildi va ta'lim tizimiga kiritildi. Masalan, «Burjua falsafasini tanqid», «Xozirgi zamon qarb sotsiologiyasini tanqid» kabi o’qquv kurslari o’qitilardi. «Ilmiy kommunizm», «Ilmiy ateizm», «Siyosiy iqtisod» bo’yicha dars olib borish barcha oliy o’quv yurtlarini tarkibiy qismi edi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin axvol tubdan o’zgardi. Sotsiologiya, kulturologiya, politologiya kabi fanlar ta'lim tizimining tarkibiy qismiga aylandi.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, biz o’rganishga kirishayotgan mazkur fan o’zining kategoriya, tushuncha, qonuniyatlari, vazifalari va maqsadlariga ega.

1) Milliy istiqlol g’oyasining ob'ekti sifatida O’zbekistonning o’ziga xos tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, milliy-madaniy rivojlanish hususiyatlarini, qadriyatlarini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, fanning ob'ektini O’zbekiston tanlagan taraqqiyot yo’li va ijtimoiy rivojlanishning milliy-ma'naviy negizlari, umumbashariy tamoyillar tashkil etadi. Negaki, O’zbekiston xalqining o’ziga xos shunday milliy-madaniy merosi va qadriyatlari mavjudki, ular mamlkatda yashayotgan xar bir fuqaro, oila, xalq va millat xayotining barcha jabxalaridan chuqur o’rin olgan. Ular orqali shu xalq, millatning «o’zligini», «borligini» boshqa xalqlar yoki millatlar o’xshashligi (umumiyligi) va farqi (ayrimligi)ni anglab olish

mumkin. Shu xususiyatlar saqlab holinsa, O’zbekiston o’ziga xos va mos taraqqiyot yo’lidan rivojlanish mumkin. Buning uchun milliy g’oya jamiyat xayoti sohalari bilan o’zaro uyg’unlashmog’i muhim ayamiyatga ega.

2) Ana shunday ishonch, e'tiqod, milliy g’urur, o’zligini namoyon etish va qadrlash tuyg’ulari milliy istiqlol g’oyasini xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanganligini ko’rsatuvchi muxim mezondir.

3) Milliy istiqlol g’oyasining maqsad va vazifalari umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga to’la-to’kis mos kelishi, demokratik erkinliklar va inson xuquqlarini saqlashga doir xalqaro andozalarga xamohangligi bilan xam insoniyat tarixidagi ko’pgina milliy g’oyalardan farq qiladi.

4) Milliy istiqlol g’oyasi fuqarolarni g’oyaviy jixatdan tarbiyalaydi. G’oya bilan g’oyaning, fikr bilan fikrning, jaxolatdan ma'rifatni farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi.

5) Milliy istiqlol g’oyasi xech qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini boshqarishni, ularni yana allaqanday «g’olipga», «yagona andozaga» solishga qaratilgan emas.

6) U fikrlar, g’oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Milliy istiqlol g’oyasi erkin fikrni uyg’otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o’zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak, milliy istiqlol g’oyasi «xukmron g’oya»ga intilishdan mutlaqo begona bo’lganligi bilan xam boshqa nosog’lom g’oyalardan farq qiladi.

7) Milliy istiqlol g’oyasi voqea-xodisalarni bilish, taxlil etish, ularga baxo berishga imkoniyat yaratib, bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi. Ulardan:

8) Odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlarini shakllantiradi;

9) Milliy totuvlik, xamjixatlikni eng katta g’oyalardan xisoblanishi, nosog’lom, maxalliychilik, uruh-aymog’chilik deb ataladigan illatlardan xoli;

10) Yosh avlodning dunyoqarashiga yangicha ma'no va mazmun bag’sh etish orqali unda faol xayotiy pozitsiyani, milliy g’oyaga ishonch va e'tiqodni shakllantirish;

11) Jamiyatda sog’lom ijtimoiy muqitni yaratish, kishilar ongiga Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg’usini mustahkamlash.

12) Istibdod davri asoratlarini bartaraf etishda ko’maklashadi. Demak, yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg’usidan xoli bo’lgan avlodni tarbiyalaydi.

3 savol.

Milliy istiqlol g’oyasi muayyan tushunchalarga asoslanadi. Ular turli xil bo’lib, jamiyatda shakllangan va mavjud bo’lgan fikrlar xilma-xilligi bilan kishilarning o’zaro ijtimoiy munosabatlari asosida amaliy xatti-xarakati orqali namoyon bo’ladi.

«G’oya», «G’oyaviy tamoyillar», «G’oyaviy tarbiya», «mafkura», «mafkuraviy tizim», «mafkuraviy poligon», «mafkuraviy immunitet» va boshqalar anna shu fan o’rganadigan tushuncha va kategoriyalar sirasiga kiradi.

G’oyalar to’g’risidagi bilimlarga insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridan boshlab katta e'tibor berilgan. Bu atamaning mazmun-mohiyati qarb mamlakatlarida «ideya» tushunchasi orqali ifodalanadi. «Ideya» grek tizimidagi «idea» so’zidan olingan bo’lib, qadimda u «obraz», «tashqi ko’rinish» degan ma'nolarni anglatar edi. Lekin bu tushunchaning mazmun-moxiyati taraqqiyot davomida o’zgarib borgan va xilma-xil ma'noda ishlatilgan.

Masalan, Platon «g’oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» to’g’risidagi ta'limotida, g’oyalarni dunyoning yaratuvchisi deb talqin etadi. Demokrit esa olam tarkibidagi eng mayda va bo’linmas zarra-atomlarni ideyalar deb atagan, Gegel fikricha esa ideya – barcha narsalarning ijodkori, dunyoga keltiruvchisi va asosiy mohiyatidir.

Keyinchalik «g’oya» va «mafkura» tushunchalarining mazmuni va ko’lami kengayib borgan. Katta-katta xududlarda yashaydigan xalqlarni birlashtiradigan g’oya va mafkuralar paydo bo’lgan.

Milliy istiqlol g’oyasi bilan bog’lig’ tushunchalarning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, u, asosan, O’zbekiston xalqining ijtimoiy xayot sohalari rivoji

bilan, uning milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi, diniy ruhiyati bilan uzviy bog’liq.

Milliy istiqlol g’oyasi milliylikni, milliy rivojlanishning xususiyatlarini e'tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi.

Milliy istiqlol g’oyasi «sinfiylik», «partiyaviylik» tamoyillariga asoslanmaydi. Boshqa mamlakat xalqlarining xayotiga o’z g’oyalarini singdirishga da'vo qilmaydi. Bu bilan u «kommunistik g’oyadan» tubdan farq qiladi.

Milliy istiqlol g’oyasi o’rganishni taqazo etadigan umumiy va o’ziga xos qonuniyatlar mavjud. Ular quyidagilar:

jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi, demak, mafkura xar qanday jamiyat xayotida zarur. Mafkura bo’lmasa, odam, jamiyat, davlat o’z yo’lini yo’qotishi muharrar.

Qaerdaki g’oyaviy bo’shliq vujudga kelsa, o’sha erda begona g’oyalar uchun sharoit yaratiladi. Buni isboti uchun tarixda misollar ko’p.

Milliy istiqlol g’oyasining namoyon bo’lish qonunlari xam mavjud.

Bular:

- turli xalqlar, turli jamiyatlar mavjud. Ularning maqsadlari xam, rivojlanish yo’llari xam turli xil, ya'ni rivojlanishning, ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xilligi qonuni orqali namoyon bo’ladi;

- dunyoning mafkuraviy manzarasi turli hil maqsadlar, turli-xil manfaatlar, qarashlar bilan bog’liq xolda namoyon bo’lgan va bo’lib qolmoqda. Bu ezgu g’oyalar bilan birga yovuz g’oyalarning xam yashovchanligini, «dunyoda mafkura soqasida kurashning» davom etib kelayotganligining asosida yotgan o’ziga xos jihatidir.

1. - globallashuv jarayonining milliy g’oyaga ta'sir etishi xam o’ziga xos umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar xayotida ularning bir-biriga bog’liqligini, o’zaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g’oyaviy xayotida aks etmasdan qolmaydi.

2. Milliy istiqlol g’oyasining printsiplari mavjud va ular bir-biri bilan uzviy bog’liqdir.

3. Ular o’z navbatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg’unligi talablariga mos kelishi bilan uzviy bog’liq. Aniqrog’i:

4. a) Milliy istiqlol g’oyasi insonparvarlik, inson qadr-qimmati, sha'ni va or-nomusi, xaq-xuquqlari hamda manfaatlarini ustuvorligi printsipiga tayanadi. Unda insonning xayoti oliy qadriyatdir.

5. b) Milliy qadriyatlarga sodiqlik – milliy g’oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu printsip O’zbekiston xududida istiqomat qilayotgan xar bir fuqaroning o’z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga etkazish uchun to’la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O’tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni xurmat qilish, ularni ijodiy jixatdan o’rganish – bu printsipning asosiy jihatidir.

6. Milliy istiqlol g’oyasini insonlar ongiga singdirishda O’zbekistonning o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim, ular:

7. Axolining milliy-turmush va tafakkur tarzi, xalq an'analari va urf-odatlari. (jamoa turmush tarzi - kollektivchilik) oilaning o’rni, Vatanga muhabbat, islom diniga e'tiqod, ma'naviy qadriyatlar.

8. Respublikamizdagi o’ziga xos demografik vaziyat. (tabiiy o’sish, aholining 60% ko’prog’i bolalar, o’smirlar, 25 yoshgacha bo’lgan yigit-qizlar, axolini yarmidan ko’prog’i qishloaq joyda yashaydi).

9. Aholi milliy tarkibining o’ziga xosligidir. (etnik tarkibida tub axoli ustun mavqeni egallaydi va yuzdan ziyod millat vakillari yashaydi).

10.Keyingi o’n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo’lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligi. (ta'limga initilish, boshqa tomondan tayyorga - ayyorlik ruhiyati yuzaga kelgani kuzatiladi).

Oila – jamiyatning negizi. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o’zining ko’p asrlik tayanchlariga ega.

Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-extiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O’zbeklarning aksariyati o’zining shaxsiy farovonligi emas, balki oilasining, qarindosh-urug’lar va yaqin odamlarining, qo’shnilarining omon-esonligi to’grisida hamxo’rlik qilishni birinchi o’ringa qo’yadi.

Milliy istiqlol g'oyasining axamiyati katta.

Milliy istiqlol g'oyasini faqat shu fanni o'rganish asosidagina egallash mumkin deb qarash noto'g'ri. Aksincha milliy istiqlol g'oyasi bilan barcha fanlar, xususan, falsafa, iqtisod, ijtimoiy-siyosiy fanlar uzviy bog'liq.

Bizning vazifamiz barcha yoshlarga milliy istiqlol g'oyasini, uning axamiyating tushuntirishdir.

Демак, Президент И.А.Каримов таъкидланаганидек, «Эндиги

[1]·Каримов И.А. «Ватан равнақи учун хар биримиз масъулмиз» 9-жилд. Т:. Oʼzбекистон, 2001, 224 б.

vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madanyait namoyandalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy asosiy tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur»[1]

## Takrorlash uchun savollar

1. Milliy istiqlol g'oyasini fan sifatida o'rganishni taqazo etgan hayotiy zaruratni tushuntiringq
2. Milliy istiqlol g'oyasining predmetini nimalar tashkil etadiq
3. Milliy istiqlol g'oyasi fanining ob'ekting nimalar tashkil etadiq
4. Milliy istiqlol g'oyasining tushunchalari nimalardan iboratq
5. Milliy istiqlol g'oyasi qanday printsiplarga tayanadiq
6. Milliy istiqlol g'oyasini tarqib etishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iboratq

## 2 – Mavzu. Jamiyat taraqqiyotining g’oya va mafkura bilan o’zaro bog’liqligi.

### Reja:

1. G’oya va mafkura tushunchalarining mazmun – mohiyati.
2. Inson hamda jamiyat hayotida g’oya va mafkuralarning o’rni.
3. Bunyodkor va vayronkor g’oyalar va mafkuralarning jamiyat hayotiga ta'siri.

### Adabiyotlar ro’yxati.


1. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. “Ma'naviyat”2008.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7 jild T. O’zbekiston, 1999
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir – T: O’zbekiston, 2000
4. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. (Prezident Islom Karimovning “Nezavisimaya gazeta” muhbirining savollariga javoblari) – T.: O’zbekiston, 2005
5. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T., - 2001 y.
6. Bunyodkor g’oya. Ma'sul muharrir K.Nazarov. T., - 2001
7. Milliy istiqlol g’oyasi. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. T. “Akademiya” nashriyot 2005.
8. N. Jo’raev Mafkuraviy immunitet. T. “Ma'naviyat” 2000

## Tayanch so'zlar

Ideya, ideologiya, bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar, ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy – siyosiy g'oyalar, mafkuraning falsafiy, dunyoviy, diniy, tarixiy, ilzidlari, g'oyaviy bo'shliq, mafkuraviy plyuralizm.

**Ma'ruza maqsadi:** Inson maqsadlari jamiyat manfaatlariga mos kelishi, taraqqiyot yo'li va istiqbolini belgilab beradigan muayyan ezgu g'oya va mafkurasida aks etishi o'ta muhimdir. Inson va jamiyat hayoti muayyan fikrlar, g'oyalar bilan uzviy bog'liq, mafkura inson hamda jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, davrlar o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shunday ekan, bugungi ma'ruzamizning maqsadi inson, jamiyat taraqqiyotida g'oya va mafkuraning o'rni hamda ta'sirini o'rganishdir.

1 savol.

Inson va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar alohida o'rin tutadi. Insoniyat tarixi – g'oyalar tarixidir, deb bejiz aytilmaydi. Demak, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladiq G'oya – inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining maqsulidir. Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no - mazmun bag'sh etadigan, uni ezgu maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmuidir.

Har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, maqsad – muddaolari, orzu – intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi. Unda mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradiq

Mafkura – muayyan ijtimoiy gurug, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, mahsad – muddaolari, manfaatlari, orzu – intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillariga o'zida mujassam etadigan g'oyalar

tizimidir.  Unda nega ayrim mafkuralar ba'zi millatlarni, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun – butun xalqlarni tanazzulga duchor etadiq

Inson – ongli mavjudot. U o'zining ongi, aql – zakovati, iymon – e'tihodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar,qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Demak. yuqorida qayd etganimizdek, birinchidan, g'oya inson tafakkurining mahsulidir.

Ikkinchidan, g'oya oldin mavjud bo'lmagan, o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilmiy adabiyotlarda "g'oya", "mafkura", "ideya" va "ideologiya" tushunchalari ishlatiladi. Ideya va ideologiya ko'proq qarb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. "idia" – g'oya, tushuncha, logos – ta'limot. Muayyan bir g'oya dastlab biror – bir shahsning ongida paydo bo'ladi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasida yoyiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, g'oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy harakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sirlar o'tqazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad sari etaklaydigan aynan shu fikr g'oyaning muhim fikrga aytiladigan xususiyati hisoblanadi.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarini ajratish mumkin.

- ilmiy g'oyalar;
- falsafiy g'oyalar;
- diniy g'oyalar;
- ijtimoiy – siyosiy g'oyalar;
- milliy g'oyalar;
- umuminsoniy g'oyalar va tokazo.

Endi ular haqida qisaqacha to'xtalib o'tamiz.

**Ilmiy g'oyalar**–fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy nashriyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi. Kosmik raketalar, kompyuter va uyali telefonlar, televidenie va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo'ladi.

**Falsafiy g'oyalar**, Har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir.

Farobiyning fozil shahar to'g'risidagi, tasavvuf daqolarining komil inson qaqidagi, Ibn Sinoning tana va ruq munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasidir.

**Diniy g'oyalar** deb, qar bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon – e'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi. Iloqlarning ko'pligi qaqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib, monoteistik – yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

**Badiy g'oyalar** –adabiyot va san'at asarlarining asosiy ma'no – mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan etakchi fikrlardir. Ular qayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, talabada muayyan taassurot uyqotadi.

"qaqramon"larni sevish, ularga ergashish qollari qam shu asosda ro'y beradi. Milliy istiqlol g'oyasini tarqib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda qam bular muqim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Ijtimoiy – siyosiy g'oyalar** qar bir xalq va umuman bashariyatning orzu – umidlarini, maqsad – muddaolarini ifodalaydi, erkin va adolatli tuzumni tarannum etadi.

**Milliy g'oyalar** –xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyalardir.

Ozodlik va mustaqillik, adolat va qaqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jumlasidandir.

**Umuminsoniy** yoki ezgu g'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy qarakterga ega bo'lgan, ruqiyatga kuchli ta'sir o'tqazib, jamiyat va odamlarni qarakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad – muddao sari etaklaydigan uluqvor fikrlardir.

"Mafkura" tushunchasi arab tilidagi "mufakkir", "mufakkiratun" so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr demakdir. "g'oya" va "Mafkura" tushunchalari bir – biriga yaqin bo'lsada, ularni aynanlashtirmaslik kerak. Chunki, mafkura g'oyaga nisbatan mazmunan kengroq tushunchadir.

Mafkura xalq orzusi bilan boqlanmas, uni yoyishga, unga erishishga xizmat qilmas ekan, u tor sinfiy, xatto guruqiy, tabaqaviy darajada qolib ketaveradi. Milliy mafkura darajasiga ko'tarilish uchun milliy g'oya xalq milliy orzusi tevaragida shakllanishi kerak. Mafkura milliy maqom kasb etishi uchun bu orzu jamiyatning barcha a'zolari ongiga etkazilishi, ularni bu orzuga intilib yashashga o'rgatish, tarbiyalashi lozim.

Prezident ta'biri bilan aytganda milliy mafkura "qalqimizga xos bo'lgan eng muqaddas tuyqu va tushunchalarning mujassam ifodasi bo'lishi kerak".

Milliy mafkura tushunchasidagi "milliy" aniqlovchisi etnik mansublikni bildirmaydi, balki mamlakatga, muayyan jamiyatga mansublikni bildiradi. Shuning uchun milliy g'oya va milliy mafkura tushunchalari "Milliy istiqlol", "Milliy xavfsizlik", "Milliy gerb", "Milliy bayroq", tushunchalari kabi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarga tegishlidir, ya'ni milliy g'oya yoki milliy mafkura faqat o'zbeklarning (titul millat) g'oyasi yoki mafkurasi deb tushunmaslik kerak. Keng ma'noda, milliy mafkura milliy g'oya tevaragida shakllanadi va u ifodalagan oliy maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini etnik mansubligidan, ijtimoiy aqvolidan, jinsi, yoshi, tilidan qat'iy nazar jipslashtiradi.

Milliy mafkurani tepadan turib yaratib va qayotga joriy etib bo'lmaydi.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, beqisob ijtimoiy – siyosiy kuchlar o'z g'oyalari va ta'limotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga etishmoq uchun qarakat qilgan. Biz qar qanday

mafkurani g’oyalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, шуни унутмаслик керакки,biror bir mafkuraning moqiyatini anglab taqlil qilishining o’zi etarli emas.

O’tmishda turli kuchlar va guruqlar o’z qarazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g’oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruqlar qam o’z kirdikorlarini ezgu g’oyalar bilan niqoblashga uringan. Demak, mafkuraning moqiyati faqat uning asosiy g’oyalari vositasida emas, shu g’oyalarga erishish usullari va vositalari, umume'tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyati omma manfaatlarga mosligi orqali qam namoyon bo’ladi. O’zining mudqish talab – eqtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa qalqlar qisobiga qondirishni ko’zlab qarakat etuvchi mafkuralar qalokatga maqkumdir.

Mafkuralar moqiyatan falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi.

**Mafkuraning falsafiy ildizlari** deganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanish nazarda tutiladi. Sharq va qarb falsafasi bunga yorqin misoldir.

**Mafkuraning dunyoviy ildizlari.** ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Masalan, umume'tirof etilgan printsiplar, qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, diniy baqrikenlik, kabi g’oyalar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi.

**Mafkuraning diniy ildizlari** –inson ongi va ruqiyati bilan uzviy boqliq ekani va shu bois uning g’oyaviy ildizlari diniy ta'limotlariga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni ko’pgina mafkuralarda Avesto, Veda, Injil va qur'on kabi kitoblarda zikr etilgan ezgu g’oyalar muayyan darajada o’z ifodasini topganini ko’ramiz.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar bir – birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko’tariladi.

Tarixiy qonuniyat shundan dalolat beradiki, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o’tish davrida, jamiyat qayotining barcha soqalarida bo’lgani singari, g’oyaviy – mafkuraviy soqada qam muammolarni qal qilish zarurati yuzaga keladi.

Ғоявий, mafkuraviy bo’shliq bir kunda va birdaniga paydo bo’lmaydi. Bunda muayyan jarayonlar ro’y berish lozim. Ya'ni eski g’oya va mafkura tanazzulga yuz tutishi, umrini o’tab bo’lishi o’tmishga aylanadi.Masalan, sobiq ittifoq mafkurasi

ana shunday xolga tushgan edi. 1991 yilda sobiq Ittifoq tarqalib ketishi bilan uzil – kesil inqirozga uchradi. Buning sababalari nimalardan ibort ediq

**Birinchidan,** u o'zini mutlaq xaqiqat ifodasi deb qisoblab, boshqa mafkurani tan olmas, ular bizning dushmanimiz, degan aqidaga asoslangan (masalan, kapitalizm va sotsializm qarama - qarshiligi).

Ikkinchidan, bu mafkura zo'ravonlikka asoslangan bo'lib, "majbur qilamiz" ("ne xochesh zastavim") deya ish tutar edi. kimki bu tartibga qarshi chiqsa, shafqatsiz jazolanar edi.

**Uchinchidan,** bu mafkura nomigagina ijtimoiy guruqlar mafkurasi edi. Aslida sobiq Ittifoq davrida qam bu mafkuradan norozi bo'lganlar bor edi.

**To'rtinchidan,** bu mafkura qech kimga vijdon erkinligi, o'z fikrini ochiq bayon etish, jumladan, xorij fuqarolari bilan xolisona muloqotda bo'lishga qam yo'l qo'ymas edi. Bordiyu kimdir shunga jur'at etsa "Xalq dushmani", "burjuaziya malayi"ga aylanar edi.

**Beshinchidan,** u milliylikdan butunlay xoli edi. Unda asosan ba ynalmilallik zo'r berib kuylanardi. Kimki milliy qadriyatlar to'qrisida gap ochsa, darxol "millatchi"ga chiqarib quyilardi.

Milliy tafakkurga ega bo'lgan shaxs, mutaqassis, ziyoli, olim va boshqalar "qoloq", "shubqali kishi" qisoblanardi.

**Oltinchidan,** unda milliy tarix, xususan O'zbekiston tarixi, uning o'tmish merosi mutlaqo tan olinmas edi. (Amir Temur davri, mustamlakachilik davri, o'zbek xalqining etnik shakllanishi, istiqlolchilar qarakati va boshqa davrlarga xolisona baqo berilmagan).

**Ettinchidan,** xalqlarning diniga, diniy merosiga, diniy qadriyatlariga nisbatan mutlaqo noto'qri munosabat o'rnatilgan edi. Jumladan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Baqouddin Naqshband, Maqmud Zamaxshariy, Imom Moturudiy kabi allomalarning boy ilmiy merosini o'rganish taqiqlangan edi.

Bularning barchasi  kommunistik mafkuraning taraqqiyot talablariga mutlaqo zid ekanini yaqqol namoyon etdi. Shu bois u yangi zamonaviy talablarga bardosh bera olmay o’z davlati bilan birga tarixga aylandi.

Sobiq mustabid tuzum o’rnida yangi mustaqil davlatlar shakllandi. qukmron mafkura barqam topgach, uning xududida ma'lum muddat g’oyaviy – mafkuraviy bo’shliq qolati vujudga keldi.

g’oyaviy bo’shliq nimaq degan savolga javob beramiz.

g’oyaviy bo’shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o’tish jarayonida oldin qukmronlik qilib kelgan mafkura o’tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o’rnini bosadigan ilqor g’oyaviy tizimning qali shakllanmagan qolatidir.

Bunday sharoitda turli mafkuralar ushbu qududga o’z ta'sir doirasini o’tqazishga urinadi.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo’shliq O’zbekiston qududida qam namoyon bo’ldi. Uning o’ziga xos xususiyatlari mavjud edi. Ular quyidagilar:

1 – qukmron, yakkaqokim bolshevistik – kommunistik mafkura batamom inqirozga yuz tutdi. Va uning o’rni bo’shab qoldi.

2 – O’zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan bo’lsada, uning mafkurasi qali to’la to’kis shakllanmagan va barcha fuqarolar ongiga singib ulgurmagan edi.

3 – g’oyaviy bo’shliq paydo bo’lgan joyda muqarrar tarzda boshqa yot va begona mafkuralar quruji boshlanadi.

Foydali yoki zararli ekanini qamma qam farqlay ololmaydi. O’zbekistondagi mafkura maydoniga begona, xalqimizning orzu – intilishlariga mutlaqo yot g’oyalarning qujumi ana shu bilan qam izoqlanadi.

Mustaqil mamlakatimiz tinch – osoyishta yashayotgan bir paytda Afqoniston va boshqa yaqin qududlardagi beqaror vaziyatdan foydalanib ekstremistik kuchlar Markaziy Osiyo mintaqasini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi.

Bu jinoiy guruqlar o’zlarining yovuz maqsadlarini turli islomiy, mafkuraviy g’oyalar bilan niqoblashga qarakat qildilar. Ana shu saqta g’oyalarni tarqatib, yoshlarni yo’ldan ozdirishga intildilar. Mamlakatimiz aqolisining tinchligi va osoyishtaligiga “Vaqqobiylik”, “Xizbut - taqrir”, “Akromiylik”, “Adolat uyushmasi”, “Islom lashkarlari”, “Tavba” kabi turli zararli g’oyalarga asoslangan kuchlar va qarakatlar taqdid sola boshladi.

Xo’sh, 80 – yillarning oqiri va 90 – yillarning boshida ayrim yurtdoshlarimiz nima uchun zararli g’oya va yot mafkuralar ta'siriga tushib qoldiq  Bu qolatning moqiyati I.A.Karimov asarlarida to’la – to’kis ochib berilgan.

**Birinchidan,** milliy g’oya, istiqlol mafkurasi to’liq shakllanib, odamlarning qalbi va ongiga singib ulgurmagan edi. Natijada e'tiqodi bo’sh, sodda va ishonuvchan odamlar bilib – bilmay noto’qri yo’llarga tushib qoldilar.

**Ikkinchidan,** mustaqil O’zbekiston eski tuzumdan yangi tuzumga o’tish jarayonida bir qator tabiiy qiyinchiliklarga duch keldi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, o’tish jarayonida qiyinchiliklar bo’lishi qonuniydir. Ayniqsa iqtisodiy soqadagi qiyinchiliklar. Bunday sharoitda sabr – qanoatga o’rganmagan, engil yo’l bilan yashashga ko’nikkan ayrim kishildar ma'lum qiyinchiliklarga duch kelgach, o’z turmush tarzini yangilash uchun oson yo’l aqtaradi. Ular aksariyat qollarda noto’qri yo’llarga kirib qoladi.

**Uchinchidan,** bugungi kunda yoshlarning qammasini qam serdaromad ish bilan ta'minlash imkoni yo’q. Ular diplomi, ma'lumoti bo’lsa qam, ba'zan ko’ngildagidek ishni topa olmaydi yoki kam ish qaqi olib ishlashni qoqlamaydi. Buning natijasida yana oson yo’l aqtarib noto’qri, yomon, salbiy qarakatlarga qo’shilib ketishi mumkin.

**To’rtinchidan,** zararli va yot mafkura vakillari xalqimiz, ayniqsa farzandlarimizning ko’ngli ochiq, soddadil, ishonuvchanligidan foydalanadi.

**Beshinchidansobiq** tuzum davrida ko’plab tashkilotlar zo’rlik orqali majburiy bo’lsada muntazam tarqibot – tashviqot ishlar olib borar edi. Lekin mustaqillik davrida ularning o’rni muayyan darajada bo’shab qoldi va bu vazifani dastlab qech qaysi tashkilot bajarmadi.

Shuningdek, ijtimoiy fanlarning qayot talablaridan orqada qolgani bunga sabab bo’ldi.

Xullas, g’oyaviy bo’shliq vujudga kelar ekan, turli mafkuraviy taqdidlar kuchayadi.

Bugungi kunda mamlakatimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy taqdidlarni aloqida ko’rsatib o’tish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat:

- islom xalifaligini tiklash uchun olib borilayotgan qarakatlar

- yosh mustaqil davlatlarni qaytadan sobiq ittifoqqa birlashtirish g’oyasi

- tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning moqiyatini saqtalashtirishga urinishlar

- xalqni ma'naviy jiqatdan buzishga qaratilgan intilishlar

- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan qarakatlar.

<u>2 savol.</u>

Inson va jamiyat qayotida g’oyalar va mafkuralar xilma – xilligini namoyon bo’lishi ijtimoiy – ma'naviy eqtiyoj ifodasidir.

Jamiyatdagi g’oya va mafkuralar xilma – xilligining kuzatilishi insonlarning tabiat – jamiyat qodisalari, olam va odam to’qrisidagi fikrlari turlichaligi bilan izoqlanadi.

Umumiy g’oyaga e'tiqod qilish tufayli turlicha ijtimoiy guruqlar shakllanadi. Ularning maqsad – muddaolari, orzu – istaklari, manfaatlari bir – biridan farqlanishi mumkin.

Masalan, ezgulik, yaratuvchilik, bunyodkorlik, qamkorlik, ozodlik, erkinlikni qaror toptirishga qaratilgan fikrlar mamlakatda osoyishtalik, xalqlar o’rtasida totuvlik, barqarorlikka xizmat qiladi. Yoki buzqunchilikka undovchi yovuz fikrlar jaqolat uruqini sepib, urushni tarqib qiladi. Buzqunchi fikrlar jamiyatdagi muayyan guruqlar, qatlamlarning ongiga singib uning yovuz manfaatlarini ifodalaydigan g’oyaga aylanishi mumkin. U qolda jamiyatda barqarorlik muqiti vujudga kelib, odamlar boshiga katta kulfatlar yoqilishi mumkin.

g’oya bilan g’oyaning bir – biriga o’xshamasligi va ular o’rtasida farq bo’lishini tabiiy jarayon deb qarash kerak. Lekin, ma'lum bir g’oya va mafkurani jamiyat a'zolari ongiga majburan singdirish va rioya qilishni barchasidan talab qilish – jiddiy xatodir.

Er yuzidagi barcha insonlar o’z fikr – muloqazalariga ega bo’lib amaliy faoliyat yuritadilar. Shu sababli yunon faylasufi Aristotel ikkita inson aynan bir xilda fikrlamaydi, ularning olam qaqidagi tushunchalari, fikrlari xilma – xildir, deydi.

Tabiiyki, mamlakatda ilqor g’oyalar, mafkuralar qancha ko’p bo’lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm qukmron bo’lsa, taraqqiyotning samarali yo’lini tanlab olishi uchun imkoniyat shunchalik keng bo’ladi.

Mustaqil O’zbekiston mafkura kommunistik yakkaqokimligidan voz kechdi va milliy taraqqiyoti uchun keng yo’l ochdi. Mamlakatimizda mafkuralar va fikrlar xilma – xilligi ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangidan – yangi g’oyalarning paydo bo’lishiga va ularni ro’yobga chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Umummilliy g’oya jamiyat a'zolarining, xalq ommasining tub manfaatlarini va orzu – umidlarini ifoda etadi, shu sababli ulkan maqsadlar yo’lida birlashtiradigan joziba kuchiga ega bo’ladi. Bunday g’oya jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi. Ammo, fikrni erkin ifoda etadigan shaxs, guruq yoki ijtimoiy qatlam, avvalo, o’zining aniq – ravshan, asosli qarashlariga ega bo’lishi, o’z nuqtai nazarining oqibati uchun ma'suliyatini o’z zimmasiga olishi zarur.

Tarixan ma'lumki, jamiyatda ezgu g’oyalar barcha davrlarda insonni yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo’lida e'tiqod bilan kurashishga o’rgatadi. Bunga yorqin misoli sifatida O’zbekistonning istiqlol yillarida barcha jabqalarda erishayotgan yutuqlarini keltirish mumkin. Shu narsani unutmaslik kerakki inson va jamiyat bor ekan, ezgulik g’oyalarining ziddi bo’lgan zulm va zo’ravonlik, qaboqat va jaqolat yangi – yangi shakllarda namoyon bo’lishi qam mumkin. Lekin ular insoniyatning adolat, tenglik, tinchlik, qardoshlik rivojlanishi va farovonlik g’oyalariga tayanib, yuksak maqsadlar sari intilishlarini to’xtata olmaydi. Ezgu g’oyalar odamlarni faqat olijanob maqsadlar sari etaklaydi.

Xulosa sifatida shuni aloqida aytish zarur mustaqil O’zekistonda qozirgi davrda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayroqi bo’lgan milliy g’oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda. Bu mafkura mustaqillik yillarda erishgan qalabalarni, eng katta yutuqimiz bo’lgan istiqlolimizni, Ona Vatanimizni, farzandlarimizni baqtli kelajagini fidoyilik bilan qimoya qilish, doimo qushyor va sergak bo’lishga yordam beradi. Zero, O’zbekiston bizning umumiy uyimiz – uni asrash qar birimizning vazifamizdir. Shu ma'noda, milliy istiqlol g’oyasi qar birimizning qalbimizga singadigan, umumiy g’oyamiz, ongimiz, dunyoqarashimizini tarkibiy qismidir.

3 Savol

Insoniyat tarixida xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishiga etaklagan yoki ularni tanazzul va qalokatga maqkum etgan turli xil g’oyalar ta'sir o’tkazib kelgan.

Shu nuqtai nazaridan qaraganda insoniyat yoki sivilizatsiyalar tarixida bunyodkor va vayronkor g’oyalar va mafkuralar mavjud bo’lgan.

Bunyodkorlik g’oya va mafkura o’zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettiradi.

Masalan, XX asrda dunyo qamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi “milliy davlatchilik tizimi” (kokutay), “fuqarolik burchi”, “yapon ruqi”, “tadbirkorlik”, “umummilliylik”, “fidoiylik”, “vatanparvarlik”, “paternalizm”, “jamoaga sadoqat”, “modernizatsiya” kabi g’oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarga poydevor bo’ldi.

Jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta'sir ko’rsatgan nazariyalar, ta'limotlar va mafkuralar ko’pdan – ko’p. Ular orasida Zardusht, Sokrat, Platon, Konfutsiy, Alisher Navoiy, Maqatma Gandi va boshqalarning bunyodkorlik g’oyalari va faoliyatining aqamiyati beqiyosdir. Amir Temur tarixan qaltis, murakkab bir vaziyatda siyosat maydonida qadam quydi. Birinchi damlardan

boshlab, uning butun fikri – qayoli markazlashgan va qudratli davlatni bunyod etish bilan band bo’ldi qamda u o’z niyatiga etdi.

Bu orada Soqibqiron katta obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, boq – roqlar barpo etish, ko’rkam binolarni qurishni davlatning rasmiy siyosati, amaliy faoliyati darajasiga ko’tardi. Lekin, eng asosiysi – u jamiyatda adolat o’rnatish va uni ta'minlashni birinchi o’ringa qo’ydi. “Adolat va ozodlik – dasturingiz, raqbaringiz bo’lsin” – dedi u. Va o’zi qam adolat bilan ish yuritishda shaxsan o’rnak ko’rsatdi. Uning o’z vazirlariga, agar men bilmay qolib, adolatsiz qaror qabul qilsam, o’zim bilmay, birovning qaqiga qiyonat qilsam, yolqonlarga uchib, xalq manfaatiga zid ish qilsam, darqol meni ogoq qilishar, deb qattiq tayinlaganini muarriqlar qayta – qayta ta'kidlaydilar. U vujudga keltirgan davlat qonunlar va urf – odatlarni qurmat qilish, ularga bo’ysunishga asoslangan edi.

Amir Temur savdo – sotiq, qunarmandchilik va madaniyatning qam qomiysi edi. U olimlar, faylasuflar, me'morlar, shoirlar, qafiz mashshoqlarga qamxo’rlik qilishda nom qozongan.

Shu bois Amir Temur va temuriylar davri, qaqli ravishda, ilm – fan, madaniyat va maorif beqad ravnaq topishini ta'minlagan Sharq Renessansi, ya'ni Uyqonish davri, deb qam ataladi.

Kromvel, Pyotr 1, Napoleon bilan ular mansub bo’lgan xalqlar qay darajada faqrlansalar, biz qam Temur siymosi bilan undan kam bo’lmagan darajada qururlanishga qaqlimiz.

Amir Temur – nafaqat milliy, balki umuminsoniy qodisadir. AqSh Kongressi vakillari palatasi majlislar zalida Amerika va jaqon tarixida chuqur iz qoldirgan, mashqur siymolar suratlari orasida uning qiyofasi tushirilgan tasvir bor. (Yana qanday isbot kerak)

g’oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik – millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur etkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. O’rta asrlardagi salib yurishlari, diniy fanatizm, ateizm, fashizm va bolshevizmning qayriinsoniy g’oyalari ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'sir etqazgan.

Masalan, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim xukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

g'oya va mafkura gumanizm va taraqqiyot tamoyillarini rad etsa jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi.

Ana shunday mafkuralardan biri – qokimiyatni qurol ko'chi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasidir. Dunyonining oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager xududida qukm surgan bu mafkura o'zining qayriinsoniy va qayrimilliy moqiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutadi.

Jaqon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba'zan buzqunchi mafkura o'zining soqta jozibasi, aldov va makr bilan omma ongini zaqarlab, jamiyatda xukmron mavqeini egallab olishi qam mumkin. Masalan XX asrning 30 yillarda Italiya va Germaniyada fashizmning qalaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Yoki aytalik terrorizm, u o'ta salbiy ijtimoiy qodisa sifatida u yoki bu ko'rinishda qadim – qadimdan ma'lum. qiziqi shundaki, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish mumkin emasligini qisobga olgani qolda terroristlar tarixning barcha davrlarida qaysi mintaqa yoki mamlakat xududida faoliyat ko'rsatishdan qat'iy nazar qar doim xalq ommasining ayrim qatlam va guruqlarini "yo'ldan urish", turli yo'llar bilan ular qalbiga yo'l topish taktikasiga amal qilib kelganlar. Terixga nazar tashlar ekanmiz terrorizmning quyidagi ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin.

-o'rta asr qaroqchilari va banditlari,

- yangi va eng yangi davrda ro'y bergan "o'ta inqilobiy xalq qarakatlari",

- oddiy meqnatkash "nomidan" surbetlarga ish ko'rishgan guruqlar,

-ayrim xududlarda terrorchi guruqlarning uzoq muddatga qokimiyat tepasiga kelganligi, xato ularning xalq bilan ma'sul bir vaqt davomida yakdil bo'lganliklari to'qrisida tarixda ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz.

Demak, terrorchilik o’ta salbiy ijtimoiy qodisa sifatida necha asrlar davomida faoliyat yuritib kelgan bo’lsa, qar doim xalq nomidagi gapirish, uning manfaatlarni aks ettiruvchi “xaqqoniy xalqparvar” qarakat deb o’zini ta'riflash amaliyoti uning barcha ko’rinishlariga bosh xususiyat bo’lib qolavergan.

Terrorizmning bugungi qolatiga keladigan bo’lsak shuki aloqida ta'kidlash lozimki, u endi o’zining kurash shakli, uslublari va vositalarini ustalik bilan o’zgartirib yuborgan. Masalan, bir zamonlar terrorchilar planetamizning turli joylarida aloqida – aloqida ya'ni biri biridan batamom ajralgan qolda qarakat qilgan bo’lsalar, bugun XXI asrda ular o’z “faoliyatini” mintaqaviy va qatto umumsayyoraviy darajada muvofiqlashtirish imkoniyatini qo’lga kiritayotganligini kuzatish mumkin. Prezidentimiz aytgandek, bugun insoniyat terrorchilar misolida xalqaro miqyosda uyushgan, kerak bo’lsa bir yoki bir nechta qudratli markazldar tomonidan boshqarilayotgan siyosiylashgan xalqaro jinoiy guruqlardir.

Zamon o’zgarib umumbashariy, siyosiy va mafkuraviy kurashning an'anaviy shakllari ish bermay qolgandan so’ng, terrorizm, endilikda boshqa yo’llarini aqtarib topmoqda.

Bugun dunyoda barcha terrorchilarni diniy qarashlari, mafkuraviy moyilligi va tafakkuridan qat'iy nazar ularni asosan ikki jiqat, u qam bo’lsa beqisob pul va qokimiyatga intilish qiziqtiradigan bo’lib qoldi.

Achinarli joyi shundaki, ba'zan zararsiz “gumanitar xarakter va yo’nalish” ga ega bo’lgan jamqarmalar alloqanday “insonparvar” strukturalar va aslida esa, aniq bir maqsad asosida faoliyat yurituvchi tashkilotlar tomonidan raqbatlantirilmoqda. Ommaviy axborot vositalarida ayrim yashirin va yarimyashirin tashkilotlar va markazlarning terroristik xarbiy – siyosiy guruqga yaqindan turib moddiy va ma'naviy yordam berayotganligini, jangarilarni tayyorlash bo’yicha ko’rgazmalar va moddiy yordam uyushtirilayotganligi to’qrisida ishonarli xabarlar borki, bu o’z navbatida xalqaro terrorizm qanchalik katta imkoniyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki:

1. Xalqaro terrorizmni bartaraf qilish amaliyotida “O’zbekiston omili” muqim o’rin tutmoqda.

2. Buyuk davlatchilik, tajovuzkor millatchilik, irqchilik, terrorchilik, shovinizm kabi yovuz g’oya va mafkuralaraga qarshi g’oyaviy – mafkuraviy kurash zarur.

3.Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, insoniyatning azal – azaldan g’oyaga qarshi g’oya,fikrga qarshi fikr, jaqolatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi – tarixning o’zgarmas qonuniyatidir.

## Takrorlash uchun savollar.

1. g’oyalarning ijtimoiy taraqqiyotidagi o’rnini aniqlash.
2. “Bunyodkor g’oyalar” tushunchasi tavsifi.
3. “Buzqunchi, vayronkor g’oyalarga” misollar keltirish.
4. “g’oyaviy bo’shliq” nimaq

# 3 - Mavzu. Globallashuv jarayonlarida milliy g’oyaga eqtiyojning ortishi.

## Reja:

1. Globallashuv tushunchasi. Globalizm va aksilglobalizm.

